

GAYMORIT KASALLIKNING DAVOLASH HAMDA UNING KELIB CHIQISHINI OLDINI OLISH

Ulmasov Alijon Obidovich

Andijon davlat tibbiyot instituti Otorinolingologiya kafedrası asistenta

Annotatsiya:

Gaymorit – yuqori jag‘ning gaymor bo‘shlig‘i yallig‘lanishi kasalligidir. Bu kasallik birlamchi kasallik sifatida emas, balki ikkilamchi kasallik sifatida, ko‘pincha shamollashni to‘liq davolamaslik natijasida kelib chiqadi. Gaymorit kelib chiqishiga olib keluvchi bir qator sabablar bor, ularning qanday ekanligidan qat‘iy nazar kasallik to‘liq davolanishi kerak. Aks holda jiddiy asoratlarga olib kelishi mumkin.

Kalit so‘zlar: Gaymor bo‘shlig‘i, gaymorit, kataral gaymorit, intonatsiya, burun shilliq qavati, allergik gaymorit.

Gaymorit — turi ko‘p bo‘lgan kasallik. Bugungi kunda shifokorlar kasallikning quyidagi turlarini ajratishadi:

Kataral gaymorit. Kasallik shilliq qavatning yallig‘lanishi, burun bo‘shlig‘ining shishishi va qizarishi bilan tavsiflanadi. Kataral gaymorit bolalar orasida ko‘proq tarqalgan. Sabablari virusli infektsiya, allergik tumov va burun shilliq qavatining jarohatlari hisoblanadi. Xarakterli alomatlari ishtaha yo‘qolishi, isitma va umumiy intoksikatsiya belgilari sanaladi.

Ikki tomonlama gaymorit. Yuqori jag‘ sinuslarining yallig‘lanishi asoratlanishida ko‘proq uchraydi. Uning yorqin belgilaridan shish, burundan ko‘p ajralma kelishi, burun bitishi, tana haroratining ko‘tarilishi, umumiy intoksikatsiya, shuningdek ko‘zlarning yoshlanishi va apatik holatlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Kasallikning ushbu turi rivojlanishiga infektsion va yallig‘lanish jarayonlari sabab bo‘lishi mumkin. Ikki tomonlama gaymoritga shubha qilganda otolaringolog kompleks davolash — dori vositalari va fizioterapiya muolajalarini buyuradi.

Polipoz gaymorit. Kasallikning bu turi dorilar bilan davolanmaydi. Qoida tariqasida, polipoz gaymorit rivojlanishi allergiyalar, burun komponentlarining anatomik tuzilishi buzilishlari va yallig‘lanishlari bilan bog‘liq. Asosiy alomatlari og‘izdan nafas olish va burundan shilliq ko‘rinishida tez-tez ajralmalar kelishi hisoblanadi. Bundan tashqari, ta‘m bilish qobiliyatining buzilishi va ishtahaning pasayishi kuzatiladi. Davolash jarroh tomonidan amalga oshiriladi. Agar poliqlar o‘lchami



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Oct., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

kichik bo'lsa, medikamentoz davo usullari qo'llanilishi ham mumkin, ammo bunda doimo ham natija sezilmaydi.

Allergik gaymorit. Buning sababi burun sinuslarining ta'sirlanishi hisoblanadi. Uning alomatlari ko'z yoshlanishi, shishganlik, tana harorati ko'tarilishi, bosh og'riqlari va umumiy holsizlikdir. Kasallik asosan kuz va bahor oylarida kuzatiladi. Allergik gaymoritni davolash uchun dastavval allergenni aniqlash va u bilan bemorning aloqa qilishini cheklash kerak. Davolovchi shifokor to'liq tekshiruv o'tkazish natijasida antiallergen terapiya, so'ng umumiy qo'llab-quvvatlovchi preparatlar buyuradi.

Yiringli gaymorit. Ko'pincha yuqori nafas yo'llarining davolanmagan yoki o'tkazib yuborilgan infeksiyon kasalliklari oqibati hisoblanadi. Ushbu turdagi gaymorit sababchilari patogen mikroorganizmlar va ularning hayotiy faoliyati mahsulotlari sanaladi. Agar kasallikning yiringli turiga yetarli e'tibor qaratilmasa va uni davolash ortga surilsa, u suyaklar va yaqin atrofdagi to'qima va a'zolarga tarqalishi mumkin. Odontogen gaymorit. Qo'zg'atuvchining kasallangan yuqori jag' tishlari va og'iz bo'shlig'idan burun yon bo'shliqlariga o'tishi oqibatida rivojlanadi. Qo'zg'atuvchilari ichak tayoqchasi, stafilokokklar, streptokokklar va ularning kombinatsiyasi sanaladi. Odontogen gaymoritning perforativ va noperforativ shakllari ham farqlanadi. Birinchisi yuqori jag' tishini sug'urish natijasida og'iz bo'shlig'i va yuqori jag' sinuslari orasida fissura hosil bo'lishida kuzatiladi. Aynan shu fissura orqali patogenlar sinuslarga yetib boradi.

Bundan tashqari, gaymorit infeksiyon, vazomotor, ekssudativ, produktiv, nekrotik va atrofik bolishi mumkin.

Infeksiyon gaymorit virusli, bakterial yoki zamburug'li tabiatga ega bo'ladi.

Burun yon bo'shlig'ining vazomotor yallig'lanishi qon tomirlari faoliyatining buzilishi bilan bog'liq.

Ekssudativ turi sinuslarda yiring mavjudligiga ishora qiladi.

Produktiv gaymoritda sinusning o'zida turli xil o'smalar shakllanadi, masalan polipoz o'smalar.

Sinuslarda nekroz qayd qilinsa, bu holda kasallikning nekrotik turi haqida gapiriladi. Sinus va burun bo'shlig'i to'qimalarining oziqlanishi buzilganda, atrofik gaymorit tashxislanadi.

Burunning gaymor bo'shlig'I yallig'lanishiga infeksiya olib keladi – ushbu bo'shliqdagi yiring tekshirib ko'rilganda stafilokokk bakteriyalari topiladi. Ammo gaymorit uzoq muddat davom etgan shamollash (cho'zilgan rinit), immun tizimi



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Oct., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

patologiyalarida ham kelib chiqadi. Tibbiyotda gaymorit kelib chiqishiga olib keluvchi bir necha faktorlar farqlanadi:

Gaymor bo'shlig'i shilliq qavati jarohatlanishi;

Doimiy issiq va quruq havo bilan nafas olish, ayniqsa zararli moddalar bilan ishlaganda;

Infeksion – yallig'lanishli kasalliklar, masalan tishlardagi kariyesni davolamaslik;

Burun to'sig'ida patologik o'zgarishlar;

Organizmning uzoq vaqt sovuq qotishi;

Burun yo'llarida va bo'shlig'ida poliplar bo'lishi;

Tashqi omillarga reaksiya – allergiya;

Tuberkulyoz (sil), zamburug'li kasalliklar.

Gaymorit diagnostikasi otorinolaringolog kuzatuvi ostida olib boriladi. Diagnostika usullari quyidagilar:

Anamnez – bemor o'tkazgan shamollash muddati, og'riq, burun bitishi haqida ma'lumot yig'ish;

Burun bo'shlig'i ko'rigi, burun to'siqlaridagi kamchiliklar bor yo'qligini aniqlash;

Umumiy qon analizi – leykotsitlar soni oshgan bo'ladi, chunki yallig'lanish jarayoni ketayotganidan dalolat beradi;

Gaymor bo'shlig'ini rentgenografiyasi – gaymor bo'shlig'ida yig'ilgan yiring ko'rinadi. Ko'pgina bemorlar kasallikning jiddiy ekanligini inkor etishadi, shunchaki shamollash o'tib ketadi deb o'ylashadi. Aslida, gaymorit belgilarini inkor etish og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin. Ular quyidagilar:

Halqum bodomchasimon bezlar yallig'lanishi;

O'tkir gaymoritning surunkali shakliga o'tishi;

O'rta quloq yallig'lanishi;

Yurak ishi buzilishi;

Buyrak va bo'g'imlarda kamchiliklar kelib chiqishi;

Sepsis;

Bosh miyaning yallig'lanishi.

Gaymoritni davolashda bir qator davo usullari bo'lishiga qaramay, aniq bir chora ko'rish uchun shilliq tekshiruvi va kasallik keltirib chiqargan aniq sababni aniqlash kerak bo'ladi.

Gaymoritda antibiotiklar.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Oct., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Shifokorlar gaymorit davosida antibiotiklarsiz kutilgan natijaga erishib bo'lmaydi deyishadi, va ular haq. Ayniqsa, kasallik kelib chiqishiga patogen mikroorganizmlar sabab bo'lsa. Antibiotik preparatlar ichidan eng samaralisi quyidagilar:

Seftriaksion. Oxirgi avlod antibiotiki. Ko'pgina aerob va anaerob mikroorganizmlarga ta'sir etadi. Qabul qilishning birinchi kunidanoq ta'sir ko'rsatadi, kutilgan natija ikki kun ichida seziladi.

Augmentin. Uchinchi avlod antibiotiki, bakteritsid ta'sir ko'rsatadi, dozalariga qat'iy e'tibor berilsa yosh bolalar va kattalarda ham qo'llasa bo'ladi.

Sumamed. Juda kuchli antibiotik, gaymorit belgilaridan 5 kun ichida xalos etishi mumkin.

Makropen. Preparat qonga tez so'riladi va 20 daqiqadan keyin ta'sir etishni boshlaydi. Bu vosita gipoallergik hisoblanadi, shuning uchun allergiyasi borlarga ham buyuriladi.

Sinupret. Tabiiy o'simliklardan olingan vosita bo'lib, qo'shimcha yordam sifatida buyuriladi.

Agar konservativ davo va xalq tabobati kutilgan natijani bermasa, shifokor bilan maslahatlashib xirurgik muolaja o'tkazish rejalari tuziladi. Operativ davo gaymor bo'shlig'ini teshib yiringni chiqarishga va u joyni antibiotiklar bilan yuvishga qaratilgan. Muolaja og'riqli bo'lganligi sababli mahalliy og'riqsizlantiruvchi vositalar yordamida bajariladi. Gaymor bo'shlig'ini teshish surunkali shaklga o'tishni oldini oladi, yiring chiqqandan keyin tana harorati normaga keladi, bemor ahvoli yaxshilanadi. Gaymorit jiddiy kasallik hisoblanadi, shuning uchun shifokorlar kasallikni to'liq davolashga harakat qilishadi. Ayniqsa, cho'zilib ketgan shamollashni bartaraf etish kerak bo'ladi. Statistika binoan, gaymorit qaytalanishi 40 % hollarda kuzatilgan. Agar profilaktik chora tadbirlar ko'rilsa kasallikdan butunlay xalos bo'lish mumkin.

Gaymorit profilaktikasiga quyidagilar kiradi:

Sovuq qotmaslik;

Immun tizimni oshiruvchi mashqlarni muntazam bajarish;

Shamollashni erta bosqichlaridayoq davolash;

Og'iz bo'shlig'i gigiyenasiga rioya qilish.

Xulosa:

Har qanday kasallikni davolagandan ko'ra oldini olish afzalroq. Kasallikni oldini olish uchun o'z vaqitda stomatolog ko'rigidan o'tib turish, sovuq havoda ko'p



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Oct., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

yurmaslik, sovuqda bosh kiyimisiz ko'chaga chiqmaslik, shamollash va grippni o'z vaqtida davolash tavsiya etiladi. Sport bilan hech bo'lmaganda kuniga 10-20 daqiqa shug'ullanish immuntitetni mustahkamlash uchun foydalidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.G. Mexchayev. «Quloq, tomoq va burun kasalliklari*. Moskva «Meditcina», 1977.
2. B.V.Shevrigin «Bolalar otorinolarologiyasidan qo'llanma». Moskva «Meditcina», 1985.
3. Y.V.Isxaki, L.N.Kalshteyn «Bolalar otorinolarologiyasi». Dushanbe «Maorif», 1985. mymedic.uz
4. P.Nikolayevskaya. «Otorinolarologiyada fizik metodlar bilan davolash». Moskva «Meditcina», 1989.
5. M.Y.Kozlov. A.A.Levin. «Bolalar surdoaudioloutiyasi». Leningrad «Meditcina», 1989.

